

**YERLARNI TEKISLASHNING AHAMIYATI VA UNDAGI MAVJUD
MUAMMOLAR**

Saidova Guljamol Komilovna

*“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti Buxoro
tabiiy resurslarni boshqarish instituti Umumtexnika fanlar”
kafedrası stajyor-o’qituvchisi;
E-mail: guljamolsaidova30@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada sug’oriladigan yerlarni tekislashdagi talab, tekislash ishlarini bajarishdagi mavjud texnikalar, ushbu texnikalardan foydalanish natijasida yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish maqsadida tavsiyalar ko’rsatilgan.

Kalit so’zi: tekislash, shudgorlash, eksplutatsion, sug’orish, maydon, kutivator, ischi jihoz, sho’r yuvish, faol, freza.

Respublikamiz sug’oriladigan yerlarining meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya obyektlari tarmog’ini rivojlantirish, suv resurslaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish, buning asosida qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishining barqaror ishlashini ta’minlash, yerlarning unumdorligini oshirish hamda qishloq xo’jaligi ekinlari hosildorligini ko’paytirish maqsadida ko’plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda [1].

Qishloq xo’jaligida sug’oriladigan maydonlarining meliorativ holatini yaxshilashning asosiy omillaridan biri bu tekislashdir. Tuproqqa bir necha marta ishlov berish va sug’orish natijasida turli shakldagi maydon notekisliklari vujudga keladi, ya’ni shudgorlash jarayonida uzun egat va jo’yakchalar, sug’orishdan so’ng baland – pastliklar va o’tgan yildagi qoldiq notekisliklari hosil bo’ladi. Bundan tashqari, maydonning ma’lum bo’laklarida takroriy sug’orishlardan tuproqning o’tirib, cho’kib qolishi kuzatiladi. Bunday notekisliklarni joriy (eksplutatsion) tekislash orqali bartaraf etish tavsiya etiladi.

Dunyo va vatanimiz dehqonchiligida isbotlanishicha, ekin maydonlarini tekislash yerlarni meliorativ holatini yaxshilashga va sug’orishda suv sarfini kamaytirishga zamin yaratadi. Ayniqsa agrotexnik talab bo’yicha ekin maydonlari mikroreflarning tebranishi ± 5 sm dan oshmasligi kerak. Sug’oriladigan yerlarni tekislash qishloq xo’jaligi ekinlarini hosildorligini oshirilishiga, maydonlarni sug’orish vaqtida mehnat sarfi va suvning ko’p isrof bo’lishini oldini olishiga, qator oralariga sifatli ishlov berish va mashina bilan hosilni yig’ishtirib olishni yuqori sifatli bajarishiga sharoit yaratadi. Tekislangan yerlarda qishloq xo’jalik mashinalari yuqori unum bilan ishlaydi,

yerlarning sho'ri yaxshi yuviladi, urug'lar bir xil chuqurlikka tushadi, ularning unib chiqishi ham bir tekisda to'liq bo'ladi. Tekislangan maydonlarda barcha qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi 40 foizgacha oshadi, keyingi eksplutastiya qilinadigan qishloq xo'jalik texnikalarining ish unumi oshadi, ishlash sharoiti yaxshilanadi [2].

Tekislanmagan dalada pastqam yerlarning tuprog'i yetilguncha, boshqa joylarida nam ko'tarilib yer qurib ketadi, bunday yerlarni kultivator bir xil chuqurlikda yumshata olmaydi, bu esa:

-ish sifatini pasaytiradi;

-yumshatilmagan yerlarda yirik kesaklar paydo bo'ladi;

-tuproqning nami tez bug'lanadi;

-o'simlik yaxshi rivojlanmaydi.

-Tekislanmagan maydonlarda suvchi bir kunda 0.5-0,6 gektarni sug'oradi;

- Notekis maydonlarda traktorini belgilangan normani bajarishi qiyinchilik bilan bo'ladi;

-Ish unumi pastligi bajariladigan agrotadbirlarni o'z vaqtidan kechiktirib o'tkazishga olib keladi;

-Sho'r yuvish ishlari sifatsiz o'tkaziladi;

- Nihollar shu sababdan notekis unib chiqadi, ko'chat soni kamayadi;

- Hosildorlikka salbiy ta'sir etadi.

Tuproq unumdorligini oshirish va sug'oriladigan yerlardan to'liq foydalanish uchun yer tekislash mashina va qurollaridan foydalanib, yerni sifatli tekislash zarur. Sug'oriladigan dehqonchilikda yerlarni har 2-3 yilda bir marotaba uzun bo'yli tekislagichlar bilan ekspluatatsion (joriy) tekislanishi lozim. Ekin maydonlarini sifatli va talab darajasida tekislash uchun tekislagichning ish samaradorligini oshirish talab etiladi. Bu esa hozirda sohaning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi [3].

Ma'lumki, sug'oriladigan maydonlarda yerlarni joriy va eksplutatsion tekislash har yili qisqa muddatlarda xo'jaliklar umumiy yer maydonidan 25...30 % kuzda va bahorda ekishdan oldin uzun bazali P-2,8A, P-4, PA-3, PPA-3,1 va boshka markali yer tekislagichlari bilan ekspluatatsion tekislanadi [4].

Mavjud uzun bo'yli tekislash mashinalari ishchi organlarini takomillashtirishda passiv va faol ishchi organlarni qo'llash va ularning ishlash texnologik jarayonlari bo'yicha yetarli darajada ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan, ishlab chiqilgan uzun bo'yli tekislagichning kombinatsiyalangan cho'michi (ishchi organi) parametrlarini asoslash bo'yicha esa to'liq tadqiqotlar o'tkazilmagan. Uzun bo'yli tekislagichlar bilan o'tkazilgan tadqiqotlar asosan passiv ishchi organ bilan amalga oshirilgan. Ushbu tekislagichlar yordamida tekislashda xarita burchaklari, burilish maydonchalarini sifatli tekislab bo'lmaydi. Uzun bo'yli tekislagichlarni konstruksiyalari rivojlanishi bilan ularni ayrim konstruktiv tuzilishlari va usullari yaxshi yo'lga qo'yilmagan.

Hozirgi tekislash mashinalarini tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, bu soha tez rivojlanmoqda. Jahonda yer tekislash ishlarida energiya-resurstejamkor va ish unumi yuqori bo'lgan mashinalarni qo'llash yetakchi o'rinni egallamoqda. "Jahon miqyosida turli qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini yetishtirish uchun har yili 1,6 mlrd. gektardan ortiq maydonga ishlov berilib, tekislash ishlari amalga oshirilishini hisobga olsak", ish sifati va unumi yuqori hamda yonilg'i sarfi kam bo'lgan yer tekislash mashina va qurilmalarni ishlab chiqarish muhim vazifalardan hisoblanadi[5].

Shu sababli energiya sarfi kam, tekislash sifati yuqori bo'lgan tekislagichlarni ishlab chiqarishni o'zlashtirish va ulardan yer tekislash ishlarida keng foydalanishga katta e'tibor qaratilgan.

Yuqorida ko'rsatilgan masalalar asosan passiv ishchi jihoziga ega yer tekislash mashinalaridan foydalanish natijasida kelib chiqqanini inobatga oladigan bo'lsak, ushbu muammolar bazali tekislagich kovshi oldida aylanma harakatda kesib yumshatuvchi, faol ishchi jihozga ega bo'lgan frezali qurilmani qo'llash orqali yechiladi.

Frezali qurilmaning vazifasi agregatni bir yoki ikki o'tishida ang'izli maydonlardagi turli o'simlik ildizlari va qoldiq poyalarni hamda yirik kesaklarni maydalab, agrotexnik talabga mos keluvchi maydon yuza tekisligi va tuproq fraksiyasini ta'minlashdan iborat bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, O'zbekiston, 2016.-56 b.
2. Vafojev S.T., Musurmanov R.Q. Qurilish va melioratsiya mashinalarini ishlatish. Toshkent "Tafakkur Bo'stoni" 2015.
3. I.S.Hasanov, H.H.Olimov, A.B.Aslova "Yer tekislagichning ish samaradorligini oshirish", Guliston Davlat Universitetidagi ilmiy – amaliy konferenstiya, 2009 yil.
4. I.S.Hasanov, P.G.Hikmatov, I.R.Xolov "Bazali tekislagichlarni unumdorligini oshirish bo'yicha", Buxoro – 2004
5. QO'CHQOROV JUR'AT JALILOVICH "BAZALI TEKISLAGICH DISKLI YUMSHATKICHLARINING PARAMETRLARINI ASOSLASH" 05.07.01 – Qishloq xo'jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI